e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/9mr9gq62

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TEONIMLARNING SHAKLLANISHI VA ILMIY TADQIQOT YO‘NALISHLARI

Axmadjonov Ilxomjon Toxirjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti, dotsent.
e-mail: ilxomjon@mail.ru **ORCID**: https://orcid.org/0009-0000-7390-6565

Annotatsiya.
Ushbu maqolada teonim tushunchasi va u bilan bog‘liq ilmiy yo‘nalishlarning shakllanishi hamda rivojlanishi yoritiladi. Shuningdek, mazkur yo‘nalish doirasida olib borilgan tadqiqotlarda olimlar tomonidan e’tibor qaratilgan asosiy masalalar va ularning ilmiy o‘rganilish jihatlari haqida ma’lumot beriladi.
Kalit so‘zlar: teonim, antroponim, onomastika, nomshunoslik, matnshunoslik, uslub.

ФОРМИРОВАНИЕ ТЕОНИМОВ И НАПРАВЛЕНИЯ ИХ НАУЧНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Ахмаджонов Илхомжон Тохиржон угли
Ферганский государственный университет, доцент.

Аннотация.
В статье рассматриваются понятие теонима, становление и развитие связанных с ним научных направлений. Также освещаются основные вопросы, которым исследователи уделяли внимание при изучении теонимов, и особенности их научного рассмотрения в рамках данного направления.
Ключевые слова: теоним, антропоним, ономастика, наука об именах, текстология, стиль.

THE FORMATION OF THEONYMS AND DIRECTIONS OF THEIR SCIENTIFIC STUDY IN UZBEK LINGUISTICS

Axmadjonov Ilxomjon Toxirjon o‘g‘li
Fergana State University, Associate Professor.

Abstract.
This article examines the concept of the theonym and the emergence and development of related fields of scientific research. It also highlights the main issues addressed by scholars in the study of theonyms and the specific aspects of their academic investigation within this field.
Keywords: theonym, anthroponym, onomastics, name studies, textual criticism, style.

Kirish. Tilshunoslik tarixiga nazar tashlar ekanmiz, uning shakllanishi, rivojlanishi, ravnaq topishiga turli davrlarda turli qarashlar va nazariyalar asos bo‘lganiga guvoh bo‘lamiz. Bu qarashlar ba’zi o‘rinlarda bir-birini inkor etsa, ba’zi o‘rinlarda biri ikkinchisini to‘ldirib, yanada boyitib, fandagi mavhumliklarning ochilishiga zamin yaratib borgan va bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

XXI asrga qadar dunyo tilshunosligida tilga semantik va sintaktik nuqtayi nazardan yondashib kelingan. Bu davrga kelib esa til sohibi va uning yaratuvchisi hisoblangan inson omilini yetakchi o‘rinda o‘rganish kuchaydi. Bu qarashning shakllanishi tilshunoslikning yangi oqimi deya e’tirof etilayotgan antroposentrik tilshunoslikning vujudga kelishiga zamin yaratdi. Antroposentrik tilshunoslik o‘zigacha bo‘lgan yo‘nalishlar – an’anaviy va sistem-struktur tilshunoslik negizida vujudga keldi.

Professor Sh. Safarov antroposentrik paradigmaning vujudga kelishi haqida fikr bildirar ekan, undan avvalgi qiyosiy-tarixiy paradigmaning “atomistik” xarakterini, ya’ni til hodisalarini bir-biridan ajratib, alohida-alohida tahlil qilish natijasida yuzaga kelgan jiddiy kamchiliklarni bartaraf etish yo‘li tanlanganini ta’kidlaydi. Sistem-struktur yo‘nalishning asosiy yutug‘i tilning tizimli hodisa ekanligini isbotlab berganidir. Biroq bu ikki paradigmada ham muayyan nuqsonlar mavjud edi: ularda til o‘z egasi – insondan ajratib qaralgan. Ushbu muhim kamchilikni yo‘qotishga qaratilgan izlanishlar pragmatik va kognitiv paradigmalarning shakllanishiga turtki bo‘lganini olim alohida ta’kidlaydi.

MUHOKAMA

Istiqlol sharofati tufayli o‘zligimizga, dinimizga qaytdik, mamlakatimizda islom diniga e’tiqod, hurmat-e’tibor kuchaydi, xalqimizning diniy ibodatlar va diniy amallarni emin-erkin amalga oshirishi uchun sharoitlar yaratib berildi va berilmoqda. Prezidentimizning diniy qadriyatlarni, masjid-madrasalarni tiklash, diniy ta’lim beruvchi ilm dargohlarini barpo etish haqidagi farmon va qarorlari e’lon qilindi. “Ko‘p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o‘rganish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhitni ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi” [1.24].

ISSN 3060-5059 (Online)

Din va tilshunoslik o‘rtasidagi munosabatlarning chuqur o‘rganilishi va rivojlanishi natijasida jahon tilshunosligida yangi mustaqil yo‘nalish – teolingvistika shakllandi. Ushbu yo‘nalish diniy tilshunoslikning kelib chiqish ildizlari, o‘ziga xos xususiyatlari va rivojlanish tarixini har tomonlama tadqiq etishga qaratilgan. Teolingvistika sohasidagi dastlabki ilmiy qarashlar va yondashuvlar Devid Kristal, Jan-Per van Noppen, Uilyam Samarin kabi olimlar tomonidan ilgari surilgan.

G‘arbda “teolingvistika” atamasi ilk bor belgiyalik tilshunos olim, «teolingvistikaning otasi» nomi bilan mashhur Jan-Per van Noppen tomonidan 1981-yilda fanga olib kirilgan [2.12]. Olim “Teolingvistika” deb atalgan maqolalar to‘plamini yaratib, fanning rivojlanishiga dinshunoslar, tilshunoslar, faylasuflar, psixologlar, antropologlar va sotsiologlar xizmat qilishlarini ta’kidlaydi. Teolingvistikaning vujudga kelishi va rivojlanishida din, til va tilshunoslikning nazariy masalalarini chuqur o‘rgangan olim D. Kristal jahon tilshunosligida teolingvistikaning alohida soha sifatida o‘rganilishi va rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shgan tilshunos sifatida e’tirof etiladi. Teolingvistika atamasini tegishli terminografik lug‘atlarda qayd etgan olimlardan biri Devid Kristaldir. U o‘zining “Lingvistika va fonetika lug‘ati” nomli asarida teolingvistika terminini “til bilan diniy e’tiqodlar hamda diniy amaliyot o‘rtasidagi aloqani tadqiq etuvchi fan” deb ta’riflagan.

Bu teolingvistika terminiga D. Kristal tomonidan berilgan birinchi ta’rif edi. Ingliz tilshunosi D. Kristalning “The Cambridge Encyclopedia of Language” ensiklopediyasida “teolingvistika” terminiga izoh keltirilganligi tufayli bu termin alohida mashhurlikka erishdi [3.154]. Keyinchalik nemis teologi A. Vanger 1999-yilda “teolingvistika” terminidan foydalandi va mazkur terminni tilshunoslikdagi *sotsiolingvistika* va *neyrolingvistika* terminlari bilan solishtirib izohladi [4.507].

Teolingvistika – zamonaviy tilshunoslikning yangi yo‘nalishi. U nafaqat mavjud teolingvistik tajribalarni tahlil qilishni, balki ushbu fanni loyihalashtirishni ham o‘z ichiga oladi. Ko‘pgina xorijiy tillardagi izohli lug‘atlarda teolingvistika “*diniy tilni o‘rganish*” tarzida sharhlangan [5.12].

Teolingvistikaning mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida rivojlanishini uning turli jihatlarini har tomonlama tadqiq etish orqali izohlash mumkin. Tabiiy ravishda, dunyo aholisining ko‘pchiligi turli dinlarga e’tiqod qiladi. Shu bois mazkur tadqiqot Islom dini nuqtayi nazaridan yondashuvga asoslanadi. Dinlar o‘rtasidagi farqlar mavjud ilmiy ishlarni shartli ravishda ikki asosiy guruhga ajratib o‘rganishni talab etadi:

I. Boshqa dinlar doirasidagi teolingvistik izlanishlar.

II. Islom dini doirasidagi teolingvistik tadqiqotlar.

Yurtimizda so‘nggi yillarda olib borilayotgan ijtimoiy va siyosiy yangilanishlar fonida tadqiqotchilar uchun diniy leksikaning til sistemasidagi o‘rnini o‘rganish imkoniyatlari tobora kengaymoqda. O‘zbek tilshunosligida diniy leksemalar tadqiqi bo‘yicha N. Uluqov, T. Yo‘ldoshev, M. Umarxo‘jayev, M. Galiyeva, Sh. Sultonova kabi tilshunoslar ilmiy izlanishlar olib borganlar [6.29]. Ushbu leksik qatlamni turli jihatdan o‘rgangan bir qancha tilshunoslarimizning, jumladan, N. M. Uluqovning “O‘zbekcha diniy matnlar ekzotik leksikasi” mavzusidagi dissertatsiyasi, M. Umarxo‘jayevning diniy atama va iboralarning izohli lug‘ati, T. Yo‘ldoshevning Navoiyning “Siroj ul-muslimiyn” (“Musulmonlar chirog‘i”) va Boburning “Mubayyin” asarlarida qo‘llangan diniy atamalarning shakllanish tarixiga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyasi, Sh. Yusupovaning diniy matnlarning lingvistik tadqiqiga bag‘ishlangan “Diniy matnlarning lingvopragmatik tadqiqi” mavzusidagi tadqiqotlarida dinga oid leksemalar leksik-semantik, genealogik, grammatik va pragmatik jihatdan atroflicha tahlil etildi. Darhaqiqat, o‘zbek tilshunosligida ham din va til aloqalarini tadqiq etish tilshunoslikning rivojlanayotgan yangi yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Diniy leksemalar dastlab teonimlar termini bilan atalib, ilmiy tadqiqotlarda aynan shu nom ostida o‘rganila boshlandi.

N. Uluqovning “O‘zbekcha diniy matnlarda ekzotik leksika” mavzusidagi dissertatsiya ishida diniy matnlarda uchraydigan ekzotik leksika atroflicha tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotda o‘zbek tilidagi diniy matnlar tarkibidagi ekzotizmlar tahlil qilinib, ular ma’noviy jihatdan bir necha guruhlarga bo‘lingan.

Ekzotizmlar – yot, begona so‘zlar hisoblanib, ularning tarkibida diniy leksemalar ham o‘rin egallaydi. N. Uluqovning ta’rificha, “ilohiy kuchlarga qo‘yilgan atoqli otlar va unga qo‘shimcha ravishda diniy urf-odat va e’tiqod bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalarni ifodalovchi so‘zlarga teonimlar deyiladi” [6.60].

Teolingvistika Yevropa olimlari tomonidan madaniyatshunoslik, falsafa, sotsiologiya va psixologiya fanlari bilan yaqin hamkorlikda olib borilgan tadqiqotlar ta’sirida yanada kengaydi va chuqurlashdi. Natijada jahon tilshunosligida til va din o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish doirasi sezilarli darajada kengaydi. Soha mutaxassislarining ta’kidlashicha, teolingvistika yo‘nalishida quyidagi masalalar bo‘yicha tadqiqotlar faol olib borilmoqda: “diniy markerlangan konseptlar verballashuvi; sakral kitoblardagi matnlarning pretsedentlik va intertekstuallik jihatidan ahamiyati; diniy markerlangan lingvistik birliklarning kognitiv va lingvokulturologik aspektlari; diniy tilning diniy va dunyoviy jamiyatdagi funksiyalari; diniy tilning kommunikativ va diskursiv xususiyatlari; diniy matnlarning janrga ko‘ra tasnifi va stilistik xususiyatlari; diniy markerlangan lisoniy birliklarning qiyosiy tadqiqi; muqaddas kitoblardagi zamon ta’limotining lisoniy tadqiqi; diniy omillarning yozma va og‘zaki nutqqa ta’siri; turli matnlarda diniy-mifologik ongning aks etishi; diniy matnning funksional-uslubiy tahlili hamda uning lingvopragmatik xususiyatlari va h.k.”. Teolingvistika til haqidagi fanning bir bo‘limi bo‘lib, diniy tilni o‘rganadi. Bu sohaning asosiy vazifasi – lingvistik tahlillarni amalga oshirish hisoblanadi.

N. Uluqovning tadqiqot ishida diniy matnlar tarkibida ishlatilgan ekzotik leksika (yun. *exotikos* – “yot”, “kelgindi”, “begona” ma’nolarini bildiradi [7.23]) tilshunoslik va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan har tomonlama o‘rganilgan. Unda ekzotizmlarning lisoniy belgi va xususiyatlari, boshqa til vositalaridan farqli jihatlari, tarjima matnlarida qo‘llanilishi, bajaradigan vazifalari hamda mavzuiy guruhlari o‘zbek tilidagi diniy matnlar misolida batafsil yoritib berilgan.

Begmatov va Uluqovlarning “O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati” kitobida ushbu termin haqida quyidagi fikrlarni uchratishimiz mumkin. *Teonim* (yun. *theos* – Xudo + *onoma* – atoqli ot) termini “Ollohning nomi va

Uning atributlarining atoqli oti" ma'nosini bildiradi [8.5]. Ma'lumki, onomastika fanining bir bo'limi realionimlar, ya'ni o'tmishda va hozirda mavjud bo'lgan real obyektlarning nomlari deb ataladi. Bunga qarama-qarshi bo'lgan mifonimlar esa xayoliy va to'qima obyektlarning nomlarini ifodalaydi.

Tadqiqotchi Sh. Maxmaraimova tomonidan *teomorf* atamasi qo'llanilgan bo'lib, u teomorf deb qaraluvchi unsurlarni bevosita yagona Yaratuvchi – Allohga tegishli bo'lmasdan, aksincha, ularni U Zot buyurgan tarzda yashash shartidan tashkil topuvchi teomorfizm bilan chalkashtirmaslik lozimligini aytadi [9.44].

Sh. Maxmaraimova o'zbek tilining teomorfik metaforalarini o'rganar ekan, jahon tilshunosligida mavjud va shu bilan birga chuqur ilmiy tekshirishni kutib kelayotgan teomorf unsurlar va teomorfizmlarni butunlay yangi – Sharqona dunyoqarash asosida tekshirdi. Ilmiy izlanishlarining amaliy natijasida tuzilgan "O'zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha konseptual lug'ati" [10.100] o'zbek tilida yaratilgan mukammal lug'atlardan biri bo'lib, unda jamlangan materiallar keng va chuqur izohlangan.

Sh. Amonturdiyevaning "O'zbek diniy matnining funksional-stilistik tadqiqi" nomli dissertatsiyasida diniy matnlarning fonetikasi, leksikasi, morfologiyasi va sintaksisi stilistik aspektda tadqiq etildi. O'rganilgan katta material bo'yicha "O'zbekcha diniy matnlar til va uslub jihatdan o'zbek tili funksional uslublariga o'xshash va ayni paytda farqli xususiyatlarga ham ega" degan to'g'ri to'xtamga kelindi.

Sh. Yusupova tomonidan diniy matnlarning uslubiy, funksional va lingvopragmatik xususiyatlarini tadqiq etish orqali o'zbek tilidagi diniy matnlarning boshqa matn turlaridan farqli xususiyatlari ochib berildi. Shuningdek, diniy matnlarga oid leksik birliklar tasniflandi, diniy terminlarning terminlashish, determinlashish va reterminlashish hodisalari yoritib berildi. O'zbek adabiyotshunosligida esa U. Qobilov, Sultonmurod Olim, I. Mannopov va G. To'ychiyeva singari olimlarning tadqiqotlarida diniy ta'limotlarga oid masalalar har xil aspektlarda chuqur tadqiq etilgan.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, diniy atamalar va ular bilan bog'liq voqealar inson hayotining ajralmas qismi sanaladi. Teonimlarga xos leksemalarning turli jihatdan o'rganilishi ushbu sohaning naqadar dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son «Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni. LexUZ. lex.uz
2. Yusupova Sh. T. *Diniy matnlarning lingvopragmatik tadqiqi*: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Farg'ona, 2021. – B. 12. Avtoreferat PDF · OAK e'loni. api.ziyonet.uz
3. Yusupova Sh. T. *Diniy matnlarning lingvopragmatik xususiyatlari*: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Farg'ona, 2021. Dissertatsiya keltirilgan adabiyotlar ro'yxati. aps.tsuos.uz
4. Wagner A. Theolinguistik? – Theolinguistik! // *Internationale Tendenzen der Syntaktik, Semantik und Pragmatik: Akten des 32. Linguistischen Kolloquiums in Kassel 1997* / Hrsg. von H. O. Spillmann, I. Warnke. – Frankfurt am Main: Peter Lang, 1999. – S. 507–512. To'plamning katalog yozuvi · Maqolaga bibliografik havola. 20
5. Mavlonov O. A. O'zbekistonda teolingvistika // *So'z san'ati* xalqaro jurnali. – Toshkent, 2019. – № 5. – B. 12. – ISSN 2181-9297. Maqolaga havola berilgan ilmiy nashr. tilvaadabiyot.uz
6. Uluqov N. M. *O'zbekcha diniy matnlar ekzotik leksikasi*: filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 1997. – 29 b. Avtoreferat keltirilgan adabiyotlar ro'yxati. uzsmart.uz
7. Uluqov N. *Ekzotik leksika*. – Toshkent: Usmon Nosir Media, 2021. – B. 23. Kitob keltirilgan adabiyotlar ro'yxati. inlibrary.uz
8. Begmatov E., Uluqov N. *O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati*. – Namangan, 2006. – B. 5. Lug'at keltirilgan adabiyotlar ro'yxati. zienjournals.com
9. Maxmaraimova Sh. T. *Olamning milliy lisoniy tasvirida teomorfik metaforaning kognitiv aspekti*: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018. – B. 44. ZiyoNET katalogi · OAK e'loni. library.ziyonet.uz
10. Maxmaraimova Sh. T. *O'zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha konseptual lug'ati*. – Toshkent: Cho'lpon, 2018. – B. 100. Lug'at keltirilgan ilmiy maqola.